Tashvishli buzilishlarni korrektsiya qilishda kognitiv-bixevioristik terapiya usullari	821
Sattarova Shaxnoza Qo'chqarovna, Xamroyeva Zarina Shaxriyevovna	



Rahbar va pedagogik muhit: nazariy va amaliy asoslar	824
<i>Xodjimatrova Nazira Toshmatovna, Gaziyeva Nigora Shamsiddinova</i>	
O'smirlik – deviant xulq shakllanishi uchun senzitiv davr sifatida	827
<i>Sattarova Shahnoza Qo'chqarovna, Erkinjonova Raximaxon Baxtiyor qizi</i>	
Цифровые образовательные технологии как средство формирования коммуникативной компетенции при обучении русскому языку как иностранному	830
<i>Ескараева Г. Б.</i>	
Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	833
<i>Muxiddinova Nilufar Baxodirovna</i>	
Talabalar mediakompetentligini baholash usullari va mezonlari	839
<i>Alimov Zokir Chori o'g'li</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasi orqali tabiiy fanlarni o'qitish va o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish	844
<i>Ergasheva Malohat Tursunovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash va baholash mezonlari	847
<i>Hamzayeva Nigina Azamjonovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitishda fanlararo bog'liqlik	852
<i>Musayeva Dilfuza Abdurahmonova</i>	
Ta'limda muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan metodlar tizimini ilmiy tahlil qilish	857
<i>Kobulova Maktuba Urmonjonovna</i>	
Shaxs psixologik portreti va unga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	862
<i>Ataqulov Bekzod Abdurashitovich</i>	
Zamonaviy didaktik paradigmasda talabalar ta'lim natijalarini tashxislash	866
<i>Tursunova Feruza Otaqulovna</i>	
Ingliz tilini bilishning sport talabalari uchun ahamiyati	869
<i>Azimova Umirxon Odilovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari	873
<i>Baxtiyor Suvankulov</i>	
Oliy ta'limda talabalarning mustaqil va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning metodik asoslari	877
<i>Abduraxmonova Dinara Yusupovna</i>	
Tarbiya jarayonida pedagogik boshqaruv uslublari: nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar	881
<i>Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim davlat talablari va o'quv dasturlarida nutq hamda mustaqil fikrlash masalalari	886
<i>Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna, Qobilova Dildora</i>	
Zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali talabalarning kasbiy loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	890
<i>Xamidova Feruza Turdiyevna</i>	
Raqamli davr bolasini tarbiyalashda psixologik muvozanatni saqlash orqali sog'lom shaxsni shakllantirish	896
<i>Hakimova Ziyoda Ibrohim qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intellektini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	900
<i>Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda qo'llaniladigan nazariy modellar	903
<i>Abdiraimova Xusnobod Samat qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini individuallashtirish metodlari	910
<i>Arzikulova Surayyo Fayzullayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning amaliy asoslari	914
<i>Xoliqulova Kumush Ilxom qizi</i>	
Psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida mahdudlik holatlarini bartaraf etishning takomillashtirilgan metodikasi (maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari misolida)	919
<i>Mamatqulova Dinora Yunus qizi</i>	

Ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish	923
Uzoqova Husnora	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish jamiyatning asosiy talabi sifatida	927
Toshimova Gulzoda Jamoliddinovna	
Sun'iy intellekt vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini shakllantirish mexanizmlari	930
Jumayeva Feruza Sayidovna	
O'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash (2-sinf misolida).....	936
Abdiyeva Shakila Ishkuvatovna	
Turistik faoliyatda ijtimoiy muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	941
Abdullayeva Sevara Yuldashevna	
Oilaning katta avlodi va maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtaqidagi psixologik munosabatlarning nazariy asoslari	944
Ashirova Sojida Baxromovna	
Yosh pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tajriba almashishning ilmiy-metodik asoslari va usullari	948
Dildora Rustam qizi Fozilova	
Maktabga tayyorlov bosqichida o'quvchilar grafomotorikasini individual yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	951
Jumayev Sanjar Soatmumin o'g'li	
Uzluksiz ta'limda inklyuziv yondashuvning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik va ijtimoiy omillar.....	955
Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna	
Tolerantlik tushunchasining mohiyati va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	958
Kurbanova Shoirra Abduraximovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mashg'ulotlar jarayonida TRIZ texnologiyasi bilan tanishtirishning ahamiyati.....	961
Meliboyev Anvar Rashidovich	
The Conceptual Framework and Pedagogical Affordances of Vtss: A New Paradigm for Specialised Instruction.....	964
Nilufar Sabirova	
O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	967
Qurbonova Go'zal Saydaxmatovna	
Fizika o'qitishda 4K kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari	973
Saydayev Obid Bahodir o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion faoliyat ko'nikmalarini takomillashtirishning modulli texnologiyalari	979
Saliyeva Perdexan Alimbetovna	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ijtimoiy soha xodimlarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish	984
Qaxxorov Shahriyor Yodgorovich	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish usullari.....	987
Sattorova Shaxlo Axadovna, Omonova Shoxista Anvar qizi, Raximova Durdona Murot qizi	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishning afzalliklari	990
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik sanalarga bag'ishlab ma'rifiy tadbirlar o'tkazishning afzalliklari.....	993
Tohirova Baxtigul Hasanboy qizi	
Pedagogik ta'limda talabalarning gnoseologik motivatsiyasini rivojlantirish zaruriyati	996
Xudoyqulova Dilrabo Shodmonovna	
Сопоставление русских и узбекских пословиц: сходства, различия и культурный контекст	1000
Касымова Феруза Суннатовна	
Теоретические аспекты развития мотивационной сферы в психологии изучения личности	1003
Маликова Эвелина Тимуровна	



Психологическая устойчивость личности в исследованиях узбекских учёных: теоретический анализ и применение концепции	1007
Саитходжаев Зуфар Хусан угли	
Biologiya ta'limida kognitiv yondashuv asosida o'quvchilarning universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish	1011
Daminova Fayoz Abdixakimovna	
Milliy musiqa merosini zamonaviy ta'limda saqlash muammolari va yechimlari.....	1014
Haydarov Qutlug' Hamdamovich	
Sun'iy intellekt: maktabgacha ta'lim tashkilotining taraqqiyotini ta'minlovchi zamonaviy texnologiya sifatida.....	1017
Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo'latovna	
Shukur Xolmirzayevning ijtimoiy-etnografik folklorizm yaratish mahorati.....	1021
Mamayusupova S. M.	
Androgogik va interfaol metodlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda foydalanish samaradorligi.....	1024
Normamatov Muxiddin Abdumuminovich	
Tinglab tushunishning psixologik xususiyatlari.....	1028
O. V. Kon	
Gi de Mopassanning hikoyachilik mahorati va badiiy uslubi.....	1032
Yuldashev Bahodir Bekmuratovich	
Художественный мир и стилистическая система прозы Патрика Модiano.....	1035
Давронова Зульфия Бобоевна	
Umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik qarashlar	1041
Xamidov Amin Abdulloevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish darslarida kreativ fikrlashga o'rgatish.....	1044
Abduvahob Eshmurodov	
Talabalarda tibbiy bilimlarini rivojlantirishda "Svetofor" metodining ahamiyati va xususiyatlari.....	1047
Akbarova Dono Rahmatdjonovna	
Yosh davrlariga qarab harakat koordinatsiyasining rivojlanish bosqichlari va badiiy gimnastikada ritmning ahamiyati.....	1051
Beknazarova Lobar Shokir qizi	
Mashq va topshiriqlar tizimi orqali talabalarining komparativ-kreativ fikrlashini shakllantirish.....	1055
Mohinbonu Usmonova	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosidagi kompetensiya metodlarini takomillashtirish	1058
Hamdamova Manzura Zuvaydillayevna	
Akademik ko'nikma va uning tipologik tasnifi	1062
N. J. Isakulova	
Формирование коммуникативной компетентности детей старшего дошкольного возраста в процессе взаимодействия со сверстниками.....	1068
Намазбаева Лола Закировна, Умерова Зарема Ремзиевна	
Formativ baholashning nazariy asoslari va fizika fanida qo'llash imkoniyatlari.....	1073
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Jismoniy tarbiya darslarida milliy o'yinlardan foydalanish	1078
Ibragimov Shuhratbek	
Interaktiv ta'lim muhitida o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini boyitish yo'llari.....	1082
Mutallibjonov Ma'rufjon	
O'tkir Rahmat ijodida qo'llanilgan kognitiv metaforalar.....	1088
Maxammatova Feruza Olimovna	
Tarbiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasi orqali o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish.....	1092
Qurboniyozova Mardona Fayzulla qizi	

Bo'lajak filolog shaxsining kasbiy-pedagogik kompetensiyalari va ularning tarkibiy tuzilmalari	1096
<i>Artikov Akram Elmurodovich</i>	
O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashda malaka oshirish kurslari va metodik qo'llanmalarining roli	1100
<i>Ochilova Gavhar Hamid qizi</i>	
PISA xalqaro baholash dasturining o'ziga xos xususiyatlari	1107
<i>Babayeva M. A.</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti	1112
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshekurovna</i>	
Kreativlik tushunchasining psixologik-pedagogik talqini va uni rivojlantirishning nazariy modeli	1119
<i>Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna</i>	
O'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi muloqot madaniyatining o'quvchilarning emotsional nutq rivojiga psixologik ta'siri	1124
<i>Shadiyev Feruz Djaxonovich</i>	
Maktab rahbarlarining liderlik salohiyatini rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik mexanizmlarning roli	1129
<i>Turaxonov Abdulkarim Eshkuziyevich</i>	
Cultural Memory and Historical Transformations in Uzbek and English Toponyms	1133
<i>Toshmamatova Umida O'ktam qizi</i>	
Olimpiya shon-shuhrat muzeyi ayol xodimlari o'rtasida sog'lom turmush tarzi va sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashg'ulotlarning ahamiyati	1137
<i>Ziyoda Ikromovna Gulyamova</i>	

BO'LAJAK FILOLOG SHAXSINING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARI VA ULARNING TARKIBIY TUZILMALARI

Artikov Akram Elmurodovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak filolog shaxsining kasbiy-pedagogik kompetensiyalari, ularning mazmun-mohiyati, pedagogik faoliyatdagi o'rni hamda tarkibiy tuzilmalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, filolog mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati, kasbiy tayyorgarlik samaradorligini ta'minlovchi omillar va pedagogik kompetensiyaning asosiy komponentlari yoritiladi. Tadqiqotda bo'lajak filologning kommunikativ, lingvistik, metodik, axborot-kommunikatsion, ijtimoiy va refleksiv kompetensiyalari o'zaro uzviy bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Mazkur kompetensiyalar filologning nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki uning pedagogik tafakkuri, kasbiy pozitsiyasi va ta'lim jarayonini samarali tashkil eta olish salohiyatini ham belgilashi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: bo'lajak filolog, kasbiy-pedagogik kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, tarkibiy tuzilma, kommunikativ kompetensiya, metodik kompetensiya, refleksiv kompetensiya, pedagogik faoliyat, kasbiy tayyorgarlik.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the professional and pedagogical competencies of future philologists, their essence, role in pedagogical activity, and structural components. It also highlights the importance of the competency-based approach in the training of philology specialists, the factors ensuring the effectiveness of professional training, and the main components of pedagogical competence. In the study, communicative, linguistic, methodological, information-communication, social, and reflective competencies of a future philologist are considered as an interconnected system. It is substantiated that these competencies determine not only the knowledge and skills of a philologist but also their pedagogical thinking, professional position, and ability to effectively organize the educational process.

Key words: future philologist, professional pedagogical competence, competency-based approach, structural structure, communicative competence, methodological competence, reflective competence, pedagogical activity, professional training.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически анализируются профессионально-педагогические компетенции будущего филолога, их сущность, значение в педагогической деятельности и структурные компоненты. Также рассматривается значение компетентностного подхода в процессе подготовки специалистов-филологов, факторы, обеспечивающие эффективность профессиональной подготовки, а также основные компоненты педагогической компетентности. В исследовании коммуникативные, лингвистические, методические, информационно-коммуникационные, социальные и рефлексивные компетенции будущего филолога рассматриваются как взаимосвязанная система. Обосновывается, что данные компетенции определяют не только знания и навыки филолога, но и его педагогическое мышление, профессиональную позицию и способность эффективно организовывать образовательный процесс.

Ключевые слова: будущий филолог, профессионально-педагогическая компетенция, компетентностный подход, структурная структура, коммуникативная компетенция, методическая компетенция, рефлексивная компетенция, педагогическая деятельность, профессиональная подготовка.

KIRISH

Bugungi globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi hamda ta'lim tizimida yuz berayotgan sifat o'zgarishlari oliy ta'lim muassasalari oldiga bo'lajak mutaxassislarni nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki amaliy faoliyatga tayyor holda shakllantirish vazifasini qo'yimoqda. Ayniqsa, filolog kadrlarni tayyorlash jarayonida bu masala yanada dolzarblik kasb etadi. Chunki filolog nafaqat til, adabiyot, matn va nutq hodisalarini chuqur o'rganadigan mutaxassis, balki ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy-estetik qadriyatlarni shakllantiruvchi, kommunikativ madaniyatni rivojlantiruvchi va jamiyatda til siyosatini amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi pedagog shaxs ham hisoblanadi. Shu bois bo'lajak filolog shaxsining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini ilmiy asosda tadqiq



etish, ularning mazmuni, tarkibiy qismlari va shakllanish mexanizmlarini aniqlash muhim nazariy hamda amaliy аҳамиятга ega ^[1].

Zamonaviy ta'lim paradigmasida "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari markaziy o'rin egallamoqda. An'anaviy yondashuvda talabaniy bilim hajmi asosiy ko'rsatkich sifatida baholangan bo'lsa, bugungi kunda egallangan bilimlarni turli kasbiy vaziyatlarda mustaqil, samarali va kreativ tarzda qo'llay olish salohiyati muhim mezon sifatida qaralmoqda. Shu ma'noda bo'lajak filologning kasbiy tayyorgarligi faqat lingvistik yoki adabiy bilimlarni o'zlashtirish bilan chegaralanmaydi ^[2]. U pedagogik jarayonni loyihalash, ta'lim mazmunini tanlash, o'quvchi-talabalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, samarali muloqotni tashkil etish, axborot-kommunikatsion vositalardan oqilona foydalanish, o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirib borish kabi ko'plab kompetensiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Filologik ta'limning o'ziga xos jihati shundaki, bu yo'nalish vakili tilni nafaqat o'rganadi, balki uni o'qitadi, sharhlaydi, targ'ib qiladi va madaniy kommunikatsiya vositasi sifatida rivojlantiradi. Demak, bo'lajak filologning kasbiy-pedagogik kompetensiyalari ko'p qirrali va murakkab tizimdan iborat bo'lib, unda lingvistik tayyorgarlik pedagogik mahorat bilan uzviy uyg'unlashgan bo'lishi zarur. Aynan shu uyg'unlik kelajakdagi mutaxassisning kasbiy muvaffaqiyati, pedagogik faoliyat samaradorligi va ta'lim sifati bilan bevosita bog'liqdir ^[3].

Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, kredit-modul tizimining keng joriy etilishi, ta'lim sifati qo'yilayotgan yangi talablar ham bo'lajak filologlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Chunki bugungi mehnat bozori va ta'lim muhiti raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, o'z kasbiy faoliyatini samarali tashkil eta oladigan mutaxassislarni talab qilmoqda. Bu esa filolog mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini aniq mezonlar asosida shakllantirish, baholash va rivojlantirish masalalarini dolzarb ilmiy muammo sifatida kun tartibiga olib chiqadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak filolog shaxsining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya, didaktika, metodika hamda filologik ta'lim nazariyasi kesishgan nuqtada joylashgan murakkab ilmiy muammolardan biridir. Mazkur masalani o'rganishda avvalo "kompetensiya", "kasbiy kompetentlik", "pedagogik kompetentlik", "kommunikativ kompetensiya", "metodik tayyorgarlik" kabi tayanch tushunchalarning mazmunini aniqlashtirish muhim hisoblanadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu tushunchalar turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, ularning barchasida bilim, ko'nikma, malaka, shaxsiy sifatlar va amaliy faoliyat tajribasining integrativ birligi asosiy mezon sifatida qaraladi ^[4].

Pedagogika nazariyasida kompetensiyaviy yondashuvning shakllanishi va rivojlanishi ko'plab xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari bilan bog'liq. Xususan, D. Maklelland, R. Boyatzis, J. Raven, A. Xutorskiy, I. Zimnyaya, V. Slastenin, N. Kuzmina kabi tadqiqotchilar kompetensiya va kompetentlikning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar ^[5]. Ularning ilmiy qarashlarida kompetentlik shaxsning faqat ma'lum hajmdagi bilimga egaligi emas, balki o'sha bilimni amaliy vaziyatlarda qo'llay bilishi, kasbiy muammolarni mustaqil hal etishi, refleksiya yuritishi va o'z faoliyatini takomillashtirib borish qobiliyati sifatida izohlanadi. Ayniqsa, J. Raven kompetentlikni shaxsning samarali faoliyatini ta'minlovchi ko'p komponentli tizim sifatida asoslagan bo'lsa, I. Zimnyaya uni kognitiv, operatsion-texnologik, motivatsion va axloqiy jihatlarni qamrab oluvchi integral sifat deb baholaydi ^[6].

Pedagogik kompetentlik masalasi bilan bog'liq ilmiy adabiyotlarda o'qituvchi shaxsining kasbiy rivoji markaziy o'rinda turadi. V. Slastenin, N. Kuzmina, A. Markova, E. Zeer kabi olimlar pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlovchi omillar sifatida kasbiy yo'naltirilganlik, pedagogik bilim, kommunikativ mahorat, metodik tayyorgarlik, refleksiv qobiliyat va ijodiy yondashuvni alohida ko'rsatib o'tadilar. Ushbu yondashuvlar bo'lajak filolog shaxsiga ham to'liq tatbiq etilishi mumkin, chunki filolog-pedagogning muvaffaqiyati til va adabiyotga oid chuqur bilim bilan bir qatorda, ularni o'quv jarayonida mazmunli, ta'sirchan va metodik jihatdan to'g'ri yetkaza bilishiga bog'liq ^[7].

Filologik ta'limga doir tadqiqotlarda esa bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi ko'proq lingvistik, kommunikativ, madaniy va metodik tayyorgarlik bilan izohlanadi. Tilshunoslik va til o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarda kommunikativ kompetensiya alohida ahamiyat kasb etadi. Noam Chomsky lingvistik kompetensiya tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan bo'lsa, Dell Hymes ushbu tushunchani kengaytirib, kommunikativ kompetensiyani til birliklarini vaziyatga mos, maqsadga muvofiq va ijtimoiy mezonlar asosida qo'llay olish qobiliyati sifatida sharhlaydi. Keyinchalik M. Canale va M. Swain tomonidan kommunikativ kompetensiyaning grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik tarkiblari ajratib ko'rsatilgan. Mazkur nazariyalar bo'lajak filologning kasbiy tayyorgarligini tushinishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi ^[8].

O'zbek va rus filologiyasi hamda pedagogika sohasidagi tadqiqotlarda ham bo'lajak o'qituvchi va filologlarning kasbiy tayyorgarligi masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan pedagogik mahorat, nutq madaniyati, til o'qitish metodikasi, interfaol ta'lim texnologiyalari, shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim va kompetensiyaviy yondashuv muammolari keng o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida bo'lajak filolog shaxsining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishga oid nazariy manbalar, pedagogik yondashuvlar hamda filologik ta'lim amaliyotiga doir qarashlar qiyosiy-tahliliy asosda o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak filologning kasbiy tayyorgarligi ko'p komponentli va integrallashgan tizim sifatida namoyon bo'lib, unda filologik bilim, pedagogik mahorat, kommunikativ faollik va refleksiv yondashuv o'zaro uzviy bog'liq holda shakllanadi. Mazkur kompetensiyalarni alohida-alohida emas, balki yagona kasbiy-pedagogik tizim sifatida ko'rish bo'lajak mutaxassisni samarali tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, bo'lajak filolog shaxsining kasbiy-pedagogik kompetensiyalari avvalo uning motivatsion-qadriyatli yo'nalganligi bilan belgilanadi. Ya'ni filologning kasbga bo'lgan qiziqishi, pedagogik faoliyatga ongli munosabati, til va adabiyotga hurmati, o'quvchi shaxsiga e'tibori hamda kasbiy mas'uliyati ushbu kompetensiyaning shakllanishi uchun ichki asos vazifasini bajaradi. Agar bo'lajak filologda kasbiy faoliyatga nisbatan barqaror ijobiy motivatsiya shakllanmagan bo'lsa, uning nazariy bilimlari amaliy samaradorlikka to'liq aylana olmaydi. Shu bois motivatsion komponent barcha boshqa kompetensiyalarning rivojlanishida tayanch omil sifatida namoyon bo'ladi.

Keyingi muhim natija sifatida kognitiv komponent alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Bo'lajak filolog chuqur lingvistik, adabiyotshunoslik, matnshunoslik, uslubshunoslik, pedagogika va psixologiya bilimlariga ega bo'lishi zarur. Biroq tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bilimlarning mavjudligi o'z-o'zidan yetarli emas; ularni ta'lim amaliyotida qo'llash mexanizmi ham puxta shakllangan bo'lishi kerak. Demak, filologning kasbiy-pedagogik kompetensiyasi nazariy tayyorgarlik bilan bir qatorda, bilimlarni metodik jihatdan to'g'ri transformatsiya qila olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Tahlil davomida kommunikativ kompetensiya bo'lajak filolog uchun markaziy o'rin egallashi kuzatildi. Chunki filologning kelajakdagi faoliyati bevosita nutq, til, matn, muloqot va tushuntirish jarayonlari bilan bog'liq. Shu bois u o'z fikrini aniq, ravon, uslubiy jihatdan to'g'ri va ta'sirchan ifodalash, turli auditoriyalar bilan samarali muloqot qilish, o'quvchilar bilan dialogik hamkorlikni yo'lga qo'yish, nutqiy vaziyatga mos kommunikativ strategiyalarni tanlash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kommunikativ kompetensiya nafaqat til birikmalaridan to'g'ri foydalanish, balki pedagogik muloqotni boshqarish, ta'limiy muhit yaratish va o'quvchilarning nutqiy faolligini rag'batlantirishda ham muhim omil hisoblanadi^[8].

Tadqiqot davomida axborot-kommunikatsion kompetensiyaning ham zamonaviy filolog tayyorlash tizimidagi o'rni ortib borayotgani aniqlandi. Raqamli ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak filolog elektron ta'lim resurslari, multimedia vositalari, taqdimot texnologiyalari, onlayn platformalar va raqamli matnlar bilan samarali ishlay olishi zarur. Bu esa uning nafaqat texnik savodxonligini, balki axborotni saralash, tahlil qilish, qayta ishlash va taqdim etish madaniyatini ham talab etadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, axborot-kommunikatsion kompetensiya filologning kasbiy moslashuvchanligi va innovatsion salohiyatini kuchaytiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak filolog shaxsining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish masalasi bugungi oliy ta'lim tizimida alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy filolog faqat til va adabiyot bo'yicha puxta bilimga ega mutaxassis bo'lib qolmasdan, balki pedagogik jarayonni samarali tashkil eta oladigan, o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsata oladigan, kommunikativ va metodik jihatdan yetuk kadr sifatida shakllanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan olib qarganda, kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni bo'lajak filolog tayyorgarligining markaziy ko'rsatkichi sifatida baholash mumkin.

Tahlil natijalari bilan ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan qarashlar o'zaro uyg'unlikda ekanligi kuzatildi^[9]. Xususan, kompetensiyaviy yondashuvga oid manbalarda mutaxassis tayyorgarligi bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va shaxsiy sifatlarning integratsiyasi sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv filologik ta'limga tatbiq etilganda, bo'lajak filologning nazariy filologik tayyorgarligi bilan uning pedagogik, metodik va kommunikativ tayyorgarligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash zarurati yaqqol namoyon bo'ladi. Demak, filologni tayyorlashda faqat predmet mazmuniga urg'u berish yetarli emas, balki uni o'qitish texnologiyasi, pedagogik muloqot madaniyati va refleksiv faoliyat ham teng darajada muhim hisoblanadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, bo'lajak filologning kasbiy-pedagogik kompetensiyalari tarkibida kommunikativ va metodik komponentlar yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu holat filolog kasbining tabiati bilan bevosita bog'liq. Chunki filologning asosiy ish quroli -bu so'z, nutq, matn va muloqotdir. Shu sababli unda nutqiy aniqlik, uslubiy sezgirlik, muloqot madaniyati, fikrni ta'sirchan ifodalash, tinglovchini tushunish va pedagogik vaziyatga mos yondashuvni tanlay olish qobiliyatlari shakllangan bo'lishi kerak. Metodik kompetensiya esa ushbu imkoniyatlarni amaliy dars jarayoniga tatbiq etishning asosiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi^[10]. Aks holda, kuchli nazariy tayyorgarlik amaliy samaraga aylanmasligi mumkin.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak filologning kasbiy-pedagogik kompetensiyalari bir martalik o'zlashtiriladigan tayyor model emas, balki bosqichma-bosqich rivojlanadigan dinamik tizimdir. Mazkur tizim talabani oliy ta'limdagi o'quv faoliyati, pedagogik amaliyoti, mustaqil izlanishi, ilmiy faoliyati va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida muntazam boyib boradi. Shu bois bu kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni faqat auditoriya mashg'ulotlari bilan cheklanmasligi, balki amaliy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, interfaol metodlar, kuzatuv, tahlil, loyiha ishlari va refleksiv topshiriqlar orqali qo'llab-quvvatlanishi zarur.

Muhokamada alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlaridan biri -bo'lajak filolog tayyorgarligida refleksiv kompetensiyaning yetarli darajada shakllantirilishi masalasidir. Ko'plab holatlarda talabalarda nazariy bilimlar mavjud bo'lsa-da, o'z faoliyatini tahlil qilish, pedagogik xatolarni ko'ra bilish, o'z ustida ishlash strategiyasini belgilash ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan bo'lishi mumkin.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim sharoiti bo'lajak filologdan axborot-kommunikatsion kompetensiyani ham talab qilmoqda. Raqamli resurslar, elektron platformalar, multimedia vositalari va onlayn kommunikatsiya ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan bir vaqtda, filologning bu vositalardan foydalana olmasligi uning kasbiy raqobatbardoshligini pasaytiradi. Shu jihatdan qaraganda, filologik ta'lim dasturlarida raqamli pedagogika unsurlarini kuchaytirish, taqdimot, elektron matn tahlili, onlayn ta'lim resurslari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

Umuman olganda, olib borilgan muhokama bo'lajak filolog shaxsining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish masalasi ta'lim sifati, pedagogik samaradorlik va mutaxassisning kasbiy barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak filolog shaxsining kasbiy-pedagogik kompetensiyalari zamonaviy ta'lim tizimida mutaxassis tayyorgarligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Filologning kelajakdagi kasbiy faoliyati faqat til va adabiyotga oid chuqur nazariy bilimlarga emas, balki ushbu bilimlarni pedagogik jarayonda samarali qo'llay olish, ta'lim oluvchilar bilan mazmunli muloqotga kirisha bilish, dars jarayonini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish, raqamli vositalardan foydalanish hamda o'z faoliyatini tahlil qilib borish qobiliyatiga ham bevosita bog'liqdir. Shu bois kasbiy-pedagogik kompetensiyalar bo'lajak filolog shaxsining integral sifati sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni izchil, tizimli va bosqichma-bosqich olib borilishi lozimligini ko'rsatdi. Bu jarayonda nazariya va amaliyot uyg'unligi, interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, pedagogik amaliyotni kuchaytirish, talabani mustaqil va ijodiy fikrlashini rag'batlantirish, shuningdek, refleksiv faoliyatga e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Faqat shundagina bo'lajak filolog o'z kasbiy faoliyatiga tayyor, raqobatbardosh, pedagogik jihatdan yetuk mutaxassis sifatida shakllanadi.

Demak, bo'lajak filolog shaxsining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, shuningdek, jamiyat ehtiyojlariga mos malakali pedagog-filolog kadrlarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni, 2019-yil 8-oktabr.
3. Chomsky, N. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, MA: The MIT Press, 1965.
4. Hymes, D. H. "On Communicative Competence" // Pride J. B., Holmes J. (eds.). Sociolinguistics. Selected Readings. Harmondsworth: Penguin, 1972. P. 269-293.
5. Canale, M., Swain, M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. 1980. Vol. 1. Issue 1. P. 1-47.
6. Raven, J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. London: H.K. Lewis, 1984. 251 p.
7. Зимняя И. А. Ключевые компетенции -новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. 2003. № 5. С. 34-42.
8. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. 2003. № 2. С. 58-64.
9. Сластенин В. А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Педагогика: учебное пособие для высших педагогических учебных заведений / под ред. В. А. Сластенина. М.: Академия, 2002. 566 с.
10. Кузьмина Н. В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. М.: Высшая школа, 1990.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.